

**ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘SIMLIKLAR KARANTINI VA HIMOYASI ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

QURBONOVA NAFOSAT SATTOR QIZI

**KARTOSHKAGA AGROBIOTSENOZI ENTOMOPATOGEN
NEMATODALARI MORFOLOGIYASI, EKOLOGIYASI, XO‘JALIK
AHAMIYATI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Qurbonova Nafosat Sattor qizi

Kartoshka agrobiotsenozi entomopatogen nematodalari morfologiyasi, ekologiyasi, xo‘jalik ahamiyati (Surxondaryo viloyati misolida)..... 3

Курбанова Нафосат Саттор кизи

Морфология, экология и хозяйственное значение энтомопатогенных нематод картофельного агробиоценоза (на примере Сурхандарьинской области) 19

Kurbonova Nafosat Sattor kizi

Morphology, ecology and economic significance of EPNeS of potato agrobiocenosis (the Surkhandarya region as an example 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘SIMLIKLAR KARANTINI VA HIMOYASI ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

QURBONOVA NAFOSAT SATTOR QIZI

**KARTOSHKA AGROBIOTSENOZI ENTOMOPATOGEN
NEMATODALARI MORFOLOGIYASI, EKOLOGIYASI, XO‘JALIK
AHAMIYATI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PHD/B878 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.zoology.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xaytmuratov Arslonbek Fayzullayevich**
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Saparov Qalandar Abdullayevich**
biologiya fanlari doktori, professor

Mirzayev Uktam Nuritdinovich
biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent

Yetakchi tashkilot: **Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Zoologiya instituti huzuridagi DSc.05/2025.27.12.B.22.01 raqamli Ilmiy kengashining 2026 yil «18» mart kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog'ishamol ko'chasi, 232b-uy. Zoologiya instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 289-04-65; E-mail: zoology@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Zoologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№1738-AR.raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog'ishamol ko'chasi, 232b-uy. Tel.: (+99871) 289-04-65.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «3» mart kuni tarqatildi.
(2026 yil «3»martdagi № 4-raqamli reyestr bayonnomasi).



B.R. Xolmatov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

G.S. Mirzaeva
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
b.f.d., professor

A.E.Kuchboyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi b.f.d., professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahon miqyosida ekologik xavfsiz qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, biologik himoya vositalaridan foydalanishni kengaytirish hamda pestitsid yuklamasini kamaytirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Jahon biomahsulotlar bozori hajmining barqaror o‘sishi, 2030-yilga kelib biologik nazorat vositalariga bo‘lgan talabning keskin ortishi va Yevropa mamlakatlarida xavfli pestitsidlardan foydalanishni qisqartirish siyosati biologik kurash agentlarini aniqlash hamda amaliyotga joriy etish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu bois zararkunandalarga qarshi ekologik jihatdan mos, inson salomatligiga zarar yetkazmaydigan va rezistentlik hosil qilmaydigan biologik vositalardan foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda kartoshka yetishtirish maydonlarining kengayib borishi, hosildorlikni oshirish talablari hamda zararkunandalarga qarshi barqaror himoya tizimlarini yaratish zarurati entomopatogen nematodalarni biologik kurash agenti sifatida chuqur o‘rganishni taqozo etmoqda. FAO ma‘lumotlariga ko‘ra, kartoshka dunyoning 150 dan ortiq mamlakatida yetishtirilishi, ishlab chiqarish hajmining yil sayin ortib borishi hamda zararkunandalarga chidamli navlarning cheklanganligi biologik kurash usullarini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Shu munosabat bilan agrobiotsenozlarda entomopatogen nematodalar tur tarkibini aniqlash, ularning morfologik va ekologik xususiyatlarini o‘rganish hamda biologik nazorat tizimida qo‘llash istiqbollari asoslash dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda qishloq xo‘jalik sohasini rivojlantirish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida¹ «...qo‘shimcha 300 ming gektar yer maydonini zamonaviy suv tejaydigan texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘zlashtirish va mazkur yerlarda ozuqabop, dorivor, moyli, dukkakli, sholi, g‘alla, sabzavot, poliz ekinlari ekish, intensiv bog‘ va uzumzorlar tashkil etish» kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, qishloq xo‘jalik ekinlari - kartoshka agrobiosenozi entomopatogen nematodalari tur tarkibini zamonaviy morfologik, ekologik va tizimli yondashuvlar asosida kompleks o‘rganish ilmiy asoslangan bionazorat strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekologik xavfsiz himoya qilish, pestitsid yuklamasini kamaytirish va biologik vositalardan foydalanishni kengaytirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 9-noyabrdagi “O‘simliklarni himoya qilish to‘g‘risida”gi 877-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-maydagi “Respublika hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4709-son, 2020-yil 13-oktabrdagi “O‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4861-son Qarorlari hamda

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-21-son Farmoni.

2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Entomopatogen nematodalarning tur tarkibini aniqlash, sistematik tahlil qilish, ularning morfo-ekologik xususiyatlari hamda xo‘jalik ahamiyatini ochib berish borasida xorijlik olimlar G.O.Poinar (2011), F.Agudelo-Silva (1987), R.J.Akhurst (1975), R.A.Bedding (1975), N.E.Boemare (2002), R.Gaugler (2002), R.Georgis (2006), R.W.Glaser (1932), R.U.Ehlers (2023), D.Shapiro-Illan (2021), H.K.Kaya (1997), A.M.Koppenho‘fer (2006), G.Steiner (1923), S.P.Stock (1997) va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida M.Jaworska (1995), R.Y.Mevlyudov (2000), L.G.Danilov (2020), N.I.Mikulskaya (1998), T.S.Ivanova (2000) va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekistonda nematologiya yo‘nalishining shakllanishi va rivojlanishida akademiklar hamda yetuk mutaxassislar A.T.To‘laganov (1960, 1975, 1978), D.A.Azimov (1970, 1975, 1986), O.Mavlonov (1988), Sh.X.Xurramov (1992), F.D.Akramova (2021), A.E.Kuchboyev (2017), X.S.Eshova (2010), A.Sh.Xurramov (2019), K.Eshnazarov (2016), A.Bekmurodov (2019), U.N.Mirzayev (2023), Sh.O.Saidova (2019) va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlari muhim manba bo‘lib, xususan ayrim entomoparazit nematodalar mermitidlar (Mermitidae) bo‘yicha ham O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti olimlari I.A.Lisikova (1987), R.Mavlyanova (1988), va Lebedovalar (1989), tomonidan izlanishlar olib borilgan. Biroq, kartoshka agrobiotsenozlari sharoitida entomopatogen nematodalar ya‘ni Steinernematidae va Heterorhabditidae oilalariga mansub *Steinernema* va *Heterorhabditis* avlodlarining tur tarkibi, tarqalishi, morfo-biologik hamda ekologik xususiyatlari, ularning xo‘jalik ahamiyati bugungi kunga qadar tadqiq qilinmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq AL-702205638 “Organik kartoshka yetishtirishda uning zararli organizmlariga qarshi entomopatogen nematodalar hamda antagonist mikroorganizmlar asosida biopreparatlar yaratish” (2023-2025 yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Surxondaryo viloyati sharoitida kartoshka agrobiosenozi entomopatogen nematodalarning morfologik va biologik xususiyatlarini aniqlash hamda xo‘jalik ahamiyatini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Surxondaryo viloyati sharoitida kartoshka agrobiotsenozida *Heterorhabditis* (Poinar, 1976) va *Steinernema* (Travassos, 1927)

avlodlariga mansub entomopatogen nematoda turlarining tur tarkibini aniqlash;

Heterorhabditis (Poinar, 1976) va *Steinernema* (Travassos, 1927) avlodlari entomopatogen nematodalarining keng tarqalgan turlarining morfologiyasi va biologiyasini o'rganish;

entomopatogen nematoda ayrim turlarining molekulyar-genetik tahlil qilish;

entomopatogen nematodalarning kartoshka agrobiotsenozidagi ekologik va trofik o'rnini aniqlash, shuningdek tuproqning harorat va namlik ko'rsatkichlarida ularning yashovchanligi, virulentligi va barqarorligiga ta'sir etuvchi ekologik omillarni eksperimental ravishda baholash;

entomopatogen nematodalarning foydali entomofaunaga selektiv ta'sirini o'rganib, bioxavfsizlik darajasini xalqaro mezonlari asosida aniqlash;

Surxondaryo viloyati sharoitida *Steinernema feltiae* va *Heterorhabditis bacteriophora* turlarining dala sharoitidagi biologik samaradorligini baholash va ularning tavsiya etiladigan me'yorlarini ilmiy asoslash.

Tadqiqotning obyekt kartoshka agrobiotsenozlarida tarqalgan *Heterorhabditis* (Poinar, 1976) va *Steinernema* (Travassos, 1927) avlodlari entomopatogen nematodalar turlari olingan.

Tadqiqotning predmeti *Heterorhabditis* (Poinar, 1976) va *Steinernema* (Travassos, 1927) avlodlari entomopatogen nematodalarning tarqalishi, morfo-biologik xususiyatlari, Turkiston qarsildoq qo'ng'izi hamda kuzgi tunlamga qarshi biologik kurash maqsadida qo'llashning optimal usullari va me'yorlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida zoologik, gelmintologik, molekulyar-genetik, ekologik va statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Surxondaryo viloyatining kartoshka agrobiotsenozlarida entomopatogen nematodalarning morfologik, ekologik va molekulyar-genetik xususiyatlari kompleks yondashuv asosida o'rganilib, ularning taksonomik tarkibi 2 oila, 2 avlod va 7 turdan iboratligi aniqlangan;

agrobiotsenozdagi nematodalar turlarining barqarorlik darajasi ilk bor Shannon $H'=1,746$; Simpson $(1-\lambda)=0,826$; Pielou $J'=0,894$ indeksleri orqali aniqlangan;

aniqlangan EPN turlarining ITS1-5.8S-ITS2 rDNA hamda COX gen sohalarining nukleotid ketma-ketliklari ilk bor aniqlangan;

EPNlarning ekologik chidamlilik chegaralari ilk bor tuproq turi va mikroiklim bilan bog'liq holda baholanib, loy tuproqda 20-25°C va 60-70 foiz namlikda yashovchanlikning 93,3% ga yetishi, qumli tuproqda yuqori harorat ta'sirida esa, 50,1% gacha pasayishi aniqlangan;

Galleria mellonella model lichinkalarida letal ta'sir kuchi dinamikasi o'rganilib, maqbul sharoitda LD50 85 YL/l va LT50 72 soat, noqulay sharoitda LD50 140 YL/l va LT50 46 soatligi isbotlangan;

EPNlarning foydali entomofaunaga ta'siri IOBC va EPP0 mezonlari asosida ilk bor to'liq baholanib, *Chrysoperla carnea*, *Coccinella septempunctata*, *Trichogramma spp.*, *Bracon hebetor* va asalarilarda 88–96 foiz yashovchanlik qayd etilgan va EPNlar ekologik xavfsiz 1–2 sinf agentlari sifatida tasniflangan;

kuzgi tunlam (*Agrotis segetum*) va simqurt (*Agriotes meticulosus*) lichinkalariga qarshi EPNlarning biologik samaradorligi ilk bor aniqlanib, 69–92% letallik diapazoni asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

EPNlarning tuproq-iqlim sharoitlariga moslashuviga asoslanib, Surxondaryo viloyati kartoshka maydonlarida ularni samarali qo‘llashning agroekologik talablari ishlab chiqilgan, loy tuproqda 20-25°C va 60-70% namlikda maksimal yashovchanlik 93,29 foiz bo‘lishi, qumli tuproqda esa yuqori harorat sharoitida 50,11 foizgacha pasayishi aniqlangan.

Kuzgi tunlam lichinkalariga qarshi dala sharoitida *Steinernema feltiae* nematodasining 100 mln YL/ga me‘yorida qo‘llanishi 48 soatda 69-77 foiz, 144 soatda esa 82-92 foiz letallikni ta‘minlashi amaliy jihatdan tasdiqlangan va bu me‘yor bo‘yicha qo‘llash reglamenti ishlab chiqilgan.

Simqurt lichinkalariga qarshi dala tajribalarida 100 mln YL/ga qo‘llangan EPNlar zararkunanda sonini 144 soat ichida 83-90 foizgacha kamaytirishi aniqlanib, kartoshka yetishtirishda kimyoviy insektitsidlar ulushini qisqartirishga imkon beruvchi biologik nazorat elementi sifatida amaliy ahamiyati aniqlangan.

Agrobiotsenozdagi foydali entomofaunaga EPNlarning bevosita zarar yetkazmasligi IOBC va EPPO mezonlari asosida tekshirilib, EPNlarni kartoshka himoyasi tizimiga xavfsiz integratsiya qilish imkoniyati aniqlangan.

Amaliy tavsiya sifatida *Steinernema feltiae* nematodasini kartoshka maydonlarida kuzgi tunlam va simqurtga qarshi har gektariga 100 mln uchinchi yoshdagi lichinka miqdorida qo‘llash belgilangan. Ushbu me‘yor bilan ishlov berilgan maydonlarda zararkunandalar sonining 144 soat davomida 82-92 foizgacha kamayishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda klassik va zamonaviy nematologik usullarning qo‘llanilganligi hamda ilmiy yondashuvlar, tahlillar asosida olingan natijalarni nazariy ma‘lumotlarga mos kelishi, ularning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, ilmiy davlat dasturlari amaliy loyihalarini bajarish davomida tan olinganligi, morfo-diagnostik ma‘lumotlarni morfometrik malumotlarni Statistica 13.3 (USA, www.statsoft.com) dasturi yordamida statistik tahlil qilinganligi hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kartoshka agrobiotsenozida uchraydigan entomopatogen nematodalar turlarining ilk bor kompleks morfologik, ekologik va molekulyar-genetik yondashuvlar asosida o‘rganilganligi, ularning taksonomik tarkibi 2 oila, 2 avlod va 7 turdan iboratligi, populyatsion zichligi hamda dominant guruhlari belgilanganligi, biologik xilma-xilligi Shannon, Simpson va Pielou indekslari orqali baholanganligi hamda agrobiotsenozda tabiiy bioregulyator sifatida barqaror populyatsiya shakllantirishi ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kartoshka yetishtiriladigan hududlarda entomopatogen nematodalardan foydalanishga asoslangan ekologik xavfsiz biologik himoya texnologiyasi ishlab chiqilganligi, *Steinernema feltiae* nematodasining dala sharoitida yuqori letallik ko‘rsatkichlari orqali kuzgi tunlam lichinkalari va

simqurtlarga qarshi samaradorligi tasdiqlanganligi, IOBC va EPPO mezonlariga muvofiq foydali entomofaunaga nisbatan xavfsizligi baholanganligi hamda kartoshka agrobiotsenozida barqaror va ekologik xavfsiz bionazorat vositasi sifatida qo'llashning amaliy reglamenti ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kartoshka agrobiosenozi entomopatogen nematodalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kartoshka agrobiotsenozida entomopatogen nematodalarni qo'llash bo'yicha olingan ilmiy natijalar Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanidagi "Mezon", "Ro'zi Mamaraimov", "Abrorbek Xumo Chorvachi" fermer xo'jaliklarining jami 36 gektar hamda Qumqo'rg'on tumanidagi "Bek Shox Chorvachi" fermer xo'jaligining 5 gektar maydonida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 16-yanvardagi 07/21-21-05/145-son ma'lumotnomasi). Natijada, *Steinernema feltiae* nematodasini 1 gektarga 100 mln individ me'yorida qo'llash Turkiston qarsildoq qo'ng'izi (*Agriotes meticulosus*) va kuzgi tunlam (*Agrotis segetum*) lichinkalariga qarshi yuqori biologik samaradorlikka erishish imkonini bergan.

molekulyar genetik tadqiqotlar natijasida, entomopatogen nematodalarning ribosomal DNK sohasi nukleotidlar ketma-ketligi bo'yicha olingan ma'lumotlari Biotexnologik axborotlar milliy markazi GenBank bazasiga joylashtirilgan (Biotexnologik axborotlar milliy markazi (NCBI) ning 2025-yil 28-fevraldagi ma'lumotnomasi). Natijada, *Heterorhabditis bacteriophora* (OQ121798), *Heterorhabditis indica* (OQ186761), *Steinernema feltiae* (OQ189902), *Steinernema carpocapsae* (OQ189926), *Heterorhabditis megidis* (OQ189990), *Steinernema scapterisci* (OQ189992), *Steinernema scarabaei* (OQ190051) entomopatogen nematoda turlari namunalariga kirish raqamlari olingan va ular xalqaro miqyosda nematoda turlarini aniqlash va filogeniyasini o'rganish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ishlar nashr etilgan bo'lib, shundan 1 ta laboratoriya uslubiy qo'llanmasi, 1 ta tavsiyanoma hamda O'zR OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 3 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, besh bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati ilmiy asoslangan, kartoshka agrobiotsenozida entomopatogen nematodalar xilma-xilligi, ularning ekologik va molekulyar xususiyatlarini aniqlashning nazariy hamda amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti aniq belgilangan, ishning respublika fan va texnologiyalari rivojining ustuvor


yoʻnalishlariga toʻliq mosligi koʻrsatilgan. Dissertatsiyada olingan morfologik, ekologik va molekulyar-genetik natijalarning ilmiy yangiligi asoslab berilgan, ularning agrobiotsenozlarda zararkunandalarga qarshi ekologik xavfsiz kurash tizimlarini ishlab chiqishga qoʻshadigan amaliy hissasi ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish imkoniyatlari, chop etilgan ilmiy ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Entomopatogen nematodalarning oʻrganilganlik darajasi”** deb nomlangan birinchi bobi ikki boʻlimdan iborat boʻlib, birinchi boʻlimda *Heterorhabditis* (Poinar, 1976) va *Steinernema* (Travassos, 1927) avlodlariga mansub entomopatogen nematodalarning biologiyasi, ekologiyasi, ularning *Xenorhabdus* va *Photorhabdus* avlodlari bakteriyalari bilan simbiozi, shuningdek transkriptomika, proteomika, nanozarrachalar, CRISPR-Cas9 kabi zamonaviy yondashuvlar asosida oʻrganilganligi haqidagi ilmiy manbalar tahlil qilingan. Bobning ikkinchi boʻlimida entomopatogen nematodalarning xoʻjalik ahamiyati, turli qishloq xoʻjaligi ekinlari zararkunandalariga qarshi biologik nazorat agentlari sifatida qoʻllanishi, EPN-bakteriya-zamburugʻ tizimlarining sinergik taʼsiri yoritilgan. Adabiyotlar tahlili natijasida kartoshka agroekotizimida, xususan Surxondaryo viloyati sharoitida entomopatogen nematodalar faunasi, ularning populyatsiya tuzilishi va agroekologik sharoitlarga moslashuvi yetarlicha oʻrganilmaganligi aniqlanib, tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Entomopatogen nematodalarni oʻrganish materiallari va uslublari”** deb nomlangan va Surxondaryo viloyatining Shoʻrchi va Qumqoʻrgʻon tumanlaridagi kartoshka agrobiotsenozlaridan 2021–2024-yillarda tizimli ravishda olingan tuproq namunalari nematodalarni ajratib olishda Bedding va Akhurst hamda Kaya va Stock metodikalariga asoslangan “White trap” usuli, *Galleria mellonella* lichinkalaridan foydalangan holda in vivo koʻpaytirish sxemasi qoʻllanib, *Steinernema* va *Heterorhabditis* avlodlariga mansub turlar TAF fiksatori morfometrik oʻlchovlar va maxsus diagnostika kalitlari orqali aniqlangan. *Heterorhabditis* Poinar, 1976 va *Steinernema* Travassos, 1927 avlodlariga mansub namunalarning genom DNKsi Diatom DNA Prep toʻplami yordamida ajratib olinib, COI va ITS markerlari boʻyicha PZR-amplifikatsiya, agaroz gel elektroforezi va sekvenslash usullari orqali molekulyar identifikatsiya qilingan. Entomopatogen nematodalar turlarining ekologik tuzilishi uchrash chastotasi, nisbiy ulushi, dominantlik darajalari hamda Shannon, Simpson va Pielou indeksleri asosida baholangan, laboratoriya va dala tajribalarida kartoshka zararkunandalariga qarshi EPNlarning biologik samaradorligi Abbott formulasi boʻyicha hisoblangan, maʼlumotlar tavsifiy statistik usullar asosida qayta ishlanib, oʻrtacha qiymat va standart xatoliklarni topishda Statistica 13.3 dasturidan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning **“Kartoshka agrobiotsenozi entomopatogen nematodalarining tur tarkibi, taksonomiyasi va molekulyar-genetik identifikatsiyasi”** deb nomlangan uchinchi bobida Surxondaryo viloyatining Shoʻrchi va Qumqoʻrgʻon tumanlaridan olingan 36 ta yigʻma tuproq namunalari jami 1833 ta entomopatogen nematoda qayd etilib, ularning morfologik va molekulyar-genetik belgilari asosida tavsiflangan

Steinernema va *Heterorhabditis* avlodlariga xos asosiy diagnostik belgilarning fotomikrografik koʻrinishlari 1-2-rasmlarda keltirilgan boʻlib, ular morfologik identifikatsiyada muhim ahamiyatga ega (1,2-rasm).



1 - rasm. *Steinernema feltiae* entomopatogen nematodasining tuzilishi

(A) uchinchi yoshdagi lichinka oldingi uchidagi ekskretor teshik, (B) biroz boʻrtib turgan vulva, (D) yaqqol boʻrtib turgan vulva, (E) Dum qismi, (F) Dum sohasidagi mukron (G) Ventral papilla.

2 - rasm. *Heterorhabditis bacteriophora* entomopatogen nematodasining tuzilishi

(A) Birinchi avlod germafrodit, (B) Boʻrtib turgan vulva, (D) Dum-anal sohasi, (E) Uchinchi avlod lichinkaning dum sohasi

Morfologik tahlil natijalariga koʻra, namunalar tarkibi 2 oila (*Steinernematidae*, *Heterorhabditidae*), 2 avlod (*Steinernema*, *Heterorhabditis*) va 7 ta turdan iboratligi aniqlandi. Turlar populyatsion tarkibi, uchrash chastotasi va ekologik guruhlanishi 1-jadvalda bayon etilgan. Mazkur jadvaldan koʻrinadiki, *S.feltiae* (22,4%), *H.bacteriophora* (20,7%) va *S.carpocapsae* (18,9%) jami turlarning 62% ini tashkil etib, barcha namunalarda uchragan holda dominant guruhni shakllantirdi. *H.megidis* (15,0%) subdominant, *S.scapterisci* (7,1%) va *H.indica* (9,3%) retsedent, *S.scarabaei* esa 2,6% bilan subretsedent guruhni tashkil etdi (1-jadval).

Entomopatogen nematoda turlarining dominantlik darajasi, uchrash chastotasi (F) va populyatsion ulushi (N = 1833)

Tur	F (36 namunadan)	Individ soni (N_i)	Ulushi (%)	Dominantlik guruhi
<i>Steinernema feltiae</i>	36/36 (100%)	410	22.4%	Dominant
<i>Heterorhabditis bacteriophora</i>	36/36 (100%)	380	20.7%	Dominant
<i>Steinernema carpocapsae</i>	36/36 (100%)	347	18.9%	Dominant
<i>Heterorhabditis megidis</i>	20/36 (55.6%)	275	15.0%	Subdominant
<i>Heterorhabditis indica</i>	9/36 (25.0%)	170	9.3%	Retsedent
<i>Steinernema scapterisci</i>	7/36 (19.4%)	130	7.1%	Retsedent
<i>Steinernema scarabaei</i>	3/36 (8.3%)	48	2.6%	Subretsedent
Jami:	-	1833	100%	-

Molekulyar-genetik identifikatsiya ITS1–5.8S–ITS2 rDNA hamda mitoxondrial COX genlari asosida amalga oshirildi. Har bir izolyatdan olingan nukleotid ketma-ketliklari yuqori sifat ko'rsatkichlari bilan qayd etilib, GenBank xalqaro ma'lumotlar bazasiga joylashtirildi: *S. carpocapsae* (OQ189926), *S. feltiae* (OQ189902), *S. scarabaei* (OQ190051), *S. scapterisci* (OQ189992), *H. megidis* (OQ189990), *H. bacteriophora* (OQ121798), *H. indica* (OQ186761). Olingan ketma-ketliklarni juft tekislash natijasida ular referent ma'lumotlar bilan 99,6-100% gacha o'xshashlik ko'rsatdi, aniqlangan SNPlar soni esa 0-3 diapazonida bo'lib, intra-tur mikrodiversifikatsiya darajasida baholandi va turlarning taksonomik maqomini o'zgartirmadi.

Filogenetik tahlillar ITS markerlari asosida qurilgan Maksimal ehtimollik usuli filogenetik daraxti yordamida *Steinernema* avlodining evolyutsion tuzilishini aniqlash imkonini berdi. Tahlil natijasida 12 ta mustaqil klad shakllangan bo'lib, o'z turiga mos holda II, VI, IX va XI kladdlarda yuqori bootstrap (≥ 90 %) ko'rsatkichlari bilan barqaror monofiletik guruhlarga joylashdi.

Heterorhabditidae oilasiga mansub *H. bacteriophora*, *H. megidis* va *H. indica* turlarining COX geni asosidagi filogenetik daraxti esa inter-tur genetik masofa (9,8-12,5 %) va intra-tur masofa (0,2-0,6 %) orasida aniq farqlanish mavjudligini ko'rsatdi. COX genining bunday yuqori ajratuvchanligi uni entomopatogen nematodalar uchun ishonchli-barcoding markeri sifatida tasdiqladi.

Dissertatsiyaning **“Entomopatogen nematodalarning agrobiotsenozdagi ekologik roli va tarqalish omillari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida kartoshka agrobiotsenozi sharoitida EPN turlarining tarkibi, barqarorligi va ekologik funksiyalari miqdoriy ko'rsatkichlar asosida baholandi. Xilma-xillik indeksleri bo'yicha olingan natijalar, Shannon ($H'=1,746$), Simpson ($1-\lambda=0,826$) va Pielou ($J'=0,894$) qiymatlari populyatsiyaning ekologik jihatdan boy, muvozanatli va funksiyalar turlar o'rtasida nisbatan teng taqsimlangan tizim ekanini ko'rsatadi.

70% namlik) LD₅₀=85YL/l va LT₅₀=72 soat bo‘lib, qumli tuproqda yuqori harorat va past namlik sharoitida LD₅₀140YL/l gacha oshib, LT₅₀ 46 soatgacha qisqarishi letal ta‘sir kuchining 1,6-2 baravar pasayishiga olib keldi (2-jadval).

2-jadval


Turli sharoitlarda entomopatogen nematodalarning *Galleria mellonella* lichinkalariga nisbatan ta‘siri (LD₅₀, LT₅₀ va nobud bo‘lish darajasi)

(O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti, “Zararkunanda va kasalliklardan biologik himoya qilish” laboratoriyasi, Fitotron LIA–3, 2021–2024 yy.)

Tuproq turi	Harorat (°C)	Namlik (%)	LD ₅₀ (YL/l)	LT ₅₀ (soat)	Nobud bo‘lish (%)
Qumli	30	50	140	46	61,3 ± 2,1
Qumli	20	70	95	70	87,6 ± 1,8
Loy	20	70	85	72	94,8 ± 1,2
Gil	10	60	110	64	80,2 ± 2,5

Shunday qilib, letal ta‘sir kuchi ko‘rsatkichlaridagi tafovutlar EPNlarning samaradorligi nafaqat biologik xususiyatlar, balki tuproq-mikroiqlim omillariga ham kuchli darajada bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Entomopatogen nematodalarning foydali entomofaunaga ta‘siri IOBC va EPPO mezonlari asosida baholanib, *Chrysoperla carnea* lichinkalarida EPN-qoldiq sharoitida yashovchanlik 89-95% diapazonda saqlanib, statistik jihatdan nazoratdan farq qilmadi (5-rasm).



5-rasm. Entomopatogen nematodalar qoldiqlarining foydali entomofaunaga ta‘siri, yashovchanlik, oziqlanish, parazitlanish va uchish faolligi dinamikasi

Biroq ovlanish faolligida 0-kundagi 23,8 o'lja/kundan 7-kunda 19,6 o'lja/kungacha bosqichma-bosqich pasayish qayd etildi; GLMM tahlillari bu tendensiyaning vaqt omili bilan bog'liq, ammo EPN turi bilan bevosita bog'liq emasligini ko'rsatdi. *Coccinella septempunctata* ning lichinka va imago bosqichlarida ham yashovchanlik 90% dan yuqori bo'lib qoldi, faqat oziqlanish indeksida 10-15% qisqa muddatli susayish kuzatildi. Tuxum paraziti *Trichogramma spp.* da EPN-qoldiq bilan ishlov berilgan barglarda tuxumlarning parazitlanish va chiqish foizlari nazoratga yaqin bo'lib, faqat 7-kunda ahamiyatsiz darajadagi (5-7%) kamayish qayd etildi. *Bracon hebetor* imago bosqichida falajlangan xo'jayinlar ulushi va yangi hasharotlar chiqishi ham nazorat varianti bilan bir xil darajada bo'lib, statistik farq aniqlanmadi. EPPO PP1/170 talablari bo'yicha o'tkazilgan yarim dala kuzatuvlarida asalarilarning uchish faolligi va uyaga qaytish darajasi EPN qo'llangan uchastkalarda nazoratdan sezilarli farq qilmadi.

Umuman olganda, turli foydali entomofauna guruhlarini bo'yicha olingan natijalar EPNlarning bevosita letal ta'siri minimal ekanini va ularning ta'siri IOBC tasnifida ko'pchilik holatda 1-2-sinfga (zararsiz yoki kam zararli) to'g'ri kelishini ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning beshinchi "**Entomopatogen nematodalarning kartoshka agrobiotsenozi zararkunandalariga qarshi biologik samaradorligini baholash**" bobi ikki bo'limdan iborat bo'lib ushbu bobda *Steinernema feltiae* va *Heterorhabditis bacteriophora* turlarining laboratoriya hamda dala sharoitidagi biologik samaradorligi o'rganildi. Mazkur natijalar 3-jadvalda batafsil keltirilgan.

3 -jadval

Kuzgi tunlamga qarshi qo'llanilgan entomopatogen nematodalarning biologik samaradorligi

(Surxondaryo viloyati, Sho'rchi va Qumqo'rg'on tumanidagi fermer xo'jaliklari 100 mlnYL/ga, 2021-2024 yy.)

Tajriba olib borilgan fermer xo'jaliklari	Variantlar	Sarf me'yor, mln/ga	Kuzgi tunlam lichinkalarining zichligi, dona/m ²			
			Bioagent qo'llashgacha	Bioagent qo'llanilganidan keyingi kunlarda		
				48 soat	96 soat	144 soat
"Abrorbek Xumo Chorvachi" fermer xo'jaligi	<i>Steinernema feltiae</i>	100 mln/ga	6,3	1,9	1,5	1,1
	Nazorat (ishlovsiz)	-	6,7	6,7	6,7	6,0
"Mezon"	<i>Steinernema feltiae</i>	100 mln/ga	4,1	0,9	0,7	0,5
	Nazorat (ishlovsiz)	-	4,0	4,0	3,9	3,9
"Ro'zi Mamaraimov"	<i>Steinernema feltiae</i>	100 mln/ga	5,6	1,3	0,4	0,4
	Nazorat (ishlovsiz)	-	4,4	4,4	4,4	4,4

“Bek Shox Chorvachi”	<i>Steinernema feltiae</i>	100 mln/ga	3,5	1,0	0,6	0,5
	Nazorat (ishlovsiz)	-	3,5	3,5	3,5	3,5
Biologik samaradorlik, %						
“Abrorbek Xumo Chorvachi” fermer xo‘jaligi	<i>Steinernema feltiae</i>	100 mln/ga	6,3	69	74,5	82
	Nazorat (ishlovsiz)	-	6,7	-	-	-
“Mezon”	<i>Steinernema feltiae</i>	100 mln/ga	4,1	77	82,7	86,3
	Nazorat (ishlovsiz)	-	4,0	-	-	-
“Ro‘zi Mamaraimov”	<i>Steinernema feltiae</i>	100 mln/ga	5,6	77	86,6	92
	Nazorat (ishlovsiz)	-	4,4	-	-	-
“Bek Shox Chorvachi”	<i>Steinernema feltiae</i>	100 mln/ga	3,5	71	83,4	86
	Nazorat (ishlovsiz)	-	3,5	-	-	-

Dala sharoitida olib borilgan tajribalar *S.feltiae* turining kartoshka agrobiotsenozida yuqori samaradorlikka ega ekanini yaqqol ko‘rsatdi. Turli fermer xo‘jaliklarida 100 mln YL/ga me‘yorida qo‘llangan bioagent qisqa muddat ichida zararkunanda zichligini keskin kamaytirgan bo‘lib, 48 soatda 69-77%, 144 soatga kelib esa 82-92% letallik qayd etildi. Ayniqsa, “Ro‘zi Mamaraimov” xo‘jaligida 144 soatda 92% samaradorlik aniqlangan bo‘lib, bu bioagentning dala sharoitidagi barqaror ta‘sirini ko‘rsatadi.

Bobning ikkinchi bo‘limida simqurti lichinkalariga qarshi entomopatogen nematodalar ta‘siri o‘rganilib, *S.feltiae* ning 100mlnYL/ga me‘yoridagi qo‘llanilishi barcha xo‘jaliklarda yuqori natija bergani qayd etildi. Dastlabki 48 soat ichida biologik samaradorlik 69,5–79,1%, 144 soatga kelib esa 83–90% oralig‘ida bo‘ldi. Eng yuqori natija “Bek Shox Chorvachi” xo‘jaligida kuzatilib, lichinkalar zichligi 90% gacha kamaydi. Nazorat uchastkalarida zararkunanda sonining o‘zgarishligi EPNlardan foydalanishning afzal tomonlarini yanada mustahkamladi.

Mazkur bo‘limda chuqur o‘rganilgan ma‘lumotlar entomopatogen nematoda *Steinernema feltiae* ning kartoshka agrobiotsenozida tuproq zararkunandalarini ekologik xavfsiz nazorat qilishda yuqori potensialga egaligini ko‘rsatib berdi (4-jadval).

Simqurtiga qarshi qo‘llanilgan entomopatogen nematodalarning biologik samaradorligi

(Surxondaryo viloyati, Sho‘rchi va Qumqo‘rg‘on tumanidagi fermer xo‘jaliklari 100 mlnYL/ga, 2021-2024 yy.)

Tajriba olib borilgan fermer xo‘jaliklari	Variantlar	Sarf me‘yori, mln/ga	Simqurtining zichligi, dona/m ²			
			Bioagent qo‘llashgacha	Bioagent qo‘llanilganidan keyingi kunlarda		
				48 soat	96 soat	144 soat
“Abrorbek Xumo Chorvachi” fermer xo‘jaligi	<i>Steinernema feltiae</i>	100 mln/ga	9,0	2,6	1,3	0,9
	Nazorat (<i>ishlovsiz</i>)	-	9,3	9,3	9,3	9,3
“Mezon”	<i>Steinernema feltiae</i>	100 mln/ga	8,1	1,6	1,0	0,9
	Nazorat (<i>ishlovsiz</i>)	-	7,5	7,5	7,5	7,5
“Ro‘zi Mamaraimov”	<i>Steinernema feltiae</i>	100 mln/ga	7,1	2,1	1,5	1,2
	Nazorat (<i>ishlovsiz</i>)	-	9,6	9,6	9,6	9,3
“Bek Shox Chorvachi”	<i>Steinernema feltiae</i>	100 mln/ga	8,6	2,0	1,0	0,8
	Nazorat (<i>ishlovsiz</i>)	-	8,8	8,8	8,8	8,5
<i>Biologik samaradorlik, %</i>						
“Abrorbek Xumo Chorvachi” fermer xo‘jaligi	<i>Steinernema feltiae</i>	100 mln/ga	9,0	70,4	85	89
	Nazorat (<i>ishlovsiz</i>)	-	9,3	-	-	-
“Mezon”	<i>Steinernema feltiae</i>	100 mln/ga	8,1	79,1	86,6	88
	Nazorat (<i>ishlovsiz</i>)	-	7,5	-	-	-
“Ro‘zi Mamaraimov”	<i>Steinernema feltiae</i>	100 mln/ga	7,1	69,5	78,9	83
	Nazorat (<i>ishlovsiz</i>)	-	9,6	-	-	-
“Bek Shox Chorvachi”	<i>Steinernema feltiae</i>	100 mln/ga	8,6	76,8	88,1	90,0
	Nazorat (<i>ishlovsiz</i>)	-	8,8	-	-	-

Tadqiqot natijalari tuproq harorati 12-30°C, namlik 60-90%, tuproqning loyli-qumloq tarkibga ega bo‘lgan sharoitlarda bioagentlarning maksimal samaradorlik ko‘rsatishini tasdiqladi. Ushbu ilmiy asoslangan yondashuv kelgusida integratsiyalashgan himoya tizimlarida EPNlardan foydalanish strategiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

XULOSALAR

“Kartoshka agrobiotsenozi entomopatogen nematodalar morfologiyasi, ekologiyasi, xo‘jalik ahamiyati (Surxondaryo viloyati misolida)” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Kartoshka agrobiotsenzolarida entomopatogen nematodalar ilk marotaba kompleks o‘rganilib, ularning taksonomik tarkibi 2 oila, 2 avlod va 7 turdan (*Steinernema carpocapsae*, *S.feltiae*, *S.scarabaei*, *S.scapterisci*, *Heterorhabditis bacteriophora*, *H.megidis*, *H.indica*) iboratligi aniqlandi.

2. Tuproqning 100 g ga to‘g‘ri keladigan haqiqiy zichligi *S.feltiae* - 11,39; *H.bacteriophora* - 10,56; *S.carpocapsae* - 9,64; *H.megidis* - 7,64; *H.indica* - 4,72; *S.scapterisci* - 3,61; *S.scarabaei* - 1,33 individ bo‘lib, populyatsion tuzilish bo‘yicha *S.feltiae*, *H.bacteriophora* va *S.carpocapsae* jami populyatsiyaning 62% ini tashkil etuvchi dominant guruhlarga mansubligi aniqlandi.

3. Entomopatogen nematodalar turining xilma-xillik indeksleri yuqori barqarorlikni tasdiqladi: Shannon $H' = 1,746$, Simpson $(1-\lambda) = 0,826$, Pielou $J' = 0,894$ bo‘lib, kartoshka agrobiotsenzozida EPNlar muvozanatli populyatsiyalar hosil qilganini ko‘rsatdi.

4. ITS1-5.8S-ITS2 rDNA va COX gen sohalarining to‘liq nukleotid ketma-ketliklari aniqlanib, 7 tur bo‘yicha yangi ketma-ketliklar GenBank bazasiga joylashtirildi. Surxondaryo turlari referent ketma-ketliklar bilan 99,6-100% o‘xshashlik ko‘rsatdi, inter-tur masofa 9,8-12,5%, intra-tur masofa 0,2-0,6% bo‘lib, COX genining barcoding uchun yuqori diagnostik ahamiyatga egaligi tasdiqlandi.

5. Ekologik tajribalar natijasida EPNlarning yashovchanligi tuproq turi va mikroiqlimga kuchli bog‘liqligi aniqlandi: loy tuproqda 20-25°C va 60-70% namlik sharoitida yashovchanlik darajasi 93,29% gacha yetdi, qumli tuproqda yuqori haroratda esa 50,11% gacha pasaydi.

6. Model xo‘jayin *Galleria mellonella* lichinkalarida letal ta‘sir kuchi baholanishi natijasida optimal sharoitda LD₅₀ 85 YL/l, LT₅₀ 72 soat bo‘lgani, noqulay sharoitda LD₅₀ 140 YL/l, LT₅₀ esa 46 soat atrofida bo‘lib, letal ta‘sir kuchining 1,6-2 baravar pasayishi qayd etildi.

7. Foydali entomofaunaga ta‘sir IOBC va EPPO mezonlari asosida baholanganida *Chrysoperla carnea*, *Coccinella septempunctata*, *Trichogramma spp.*, *Bracon hebetor* hamda asalarilarda yashovchanlik 88-96 % oralig‘ida bo‘lib, EPNlar 1-2 sinf toifasiga mansubligi aniqlandi.

8. Kuzgi tunlam lichinkalariga qarshi laboratoriya sinovlarida *H.bacteriophora* 50-200 dona/ml diapazonda 48-96 soatlarda 53,0-85,1%, *S.feltiae* esa 56,0-84,4% biologik samaradorlik namoyon qildi; dala sharoitida 100 mln YL/ga qo‘llangan *S.feltiae* 48 soatda 69-77%, 144 soatda 82-92% letallikka erishdi.

9. Simqurti lichinkalariga qarshi laboratoriya sinovlarida *H.bacteriophora* 200 dona/ml me‘yorda 48 va 96 soatlarda mos ravishda 89,0 va 99,0%, *S.feltiae* esa 100 dona/ml konsentratsiyada 48 soatda 100% letallik ko‘rsatdi; dala sharoitida 100 mln YL/ga me‘yorda qo‘llanganda zararkunandalar soni 144 soatda 83-90% gacha kamaydi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/2025.27.12.V.22.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ЗООЛОГИИ**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ КАРАНТИНА И
ЗАЩИТЫ РАСТЕНИЙ**

КУРБАНОВА НАФОСАТ САТТОР КИЗИ

**МОРФОЛОГИЯ, ЭКОЛОГИЯ И ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ
ЭНТОМОПАТОГЕННЫХ НЕМАТОД КАРТОФЕЛЬНОГО
АГРОБИОЦЕНОЗА
(НА ПРИМЕРЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

03.00.06 – Зоология

**ДОКТОР ФИЛОСОФИИ БИОЛОГИЧЕСКИХ НАУК (PhD)
АННОТАЦИЯ ДИССЕРТАЦИИ**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии ((PhD)) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2026.1.PhD/В878.

Диссертация выполнена в Научно-исследовательский институт карантина и защиты растений.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.zoology.uz) и в Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Хайтуратов Арслонбек Файзуллаевич
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Официальные оппоненты: Сапаров Каландар Абдуллаевич
доктор биологических наук, профессор

Мирзаев Уктам Нуритдинович
доктор философии по биологическим наукам PhD,
доцент

Ведущая организация: Самаркандский государственный университет
имени Шарофа Рашидова

Защита диссертации состоится «18» марта 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.05/2025.27.12.B.22.01 при Институте зоологии в зале заседаний института (Адрес: 100053, г.Ташкент, ул. Богишамол, дом 232⁶. тел.: (+998) 71-289-04-65, E-mail: zoology@academy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре при Институте Зоологии (зарегистрирована за №1738-AR) Адрес: 100053, г.Ташкент, ул. Богишамол, дом 232⁶. Институт зоологии. Тел.: (+998) 71-289-04-65.

Автореферат диссертации разослан «3» марта 2026 года.

(реестр Протокола рассылки №4 от «3» марта 2026 года).




Б.Р. Холматов
Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней, д.б.н.,
профессор


Г.С. Мирзаева
Учредитель секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.б.н.,
старший научный сотрудник


А.Э. Кучбоев
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению учёных
степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации.

В настоящее время на мировом уровне развитие экологически безопасного сельского хозяйства, расширение применения средств биологической защиты и снижение пестицидной нагрузки рассматриваются как одни из актуальных проблем. Устойчивый рост объёма мирового рынка биопрепаратов, прогнозируемое к 2030 году резкое увеличение спроса на средства биологического контроля, а также политика сокращения использования опасных пестицидов в странах Европы усиливают необходимость выявления эффективных агентов биологической борьбы и их внедрения в практику. В этой связи разработка научных основ применения экологически безопасных биологических средств защиты от вредителей, не оказывающих негативного воздействия на здоровье человека и не вызывающих формирования резистентности, имеет важное научное и практическое значение.

Расширение посевных площадей картофеля в мире, возрастающие требования к повышению урожайности и необходимость создания устойчивых систем защиты от вредителей обуславливают актуальность углублённого изучения энтомопатогенных нематод как агентов биологической борьбы. По данным ФАО, картофель возделывается более чем в 150 странах мира, объёмы его производства ежегодно увеличиваются, при этом количество сортов, устойчивых к вредителям, остаётся ограниченным, что усиливает потребность в развитии биологических методов защиты. В этой связи определение видового состава энтомопатогенных нематод в агробиоценозах, изучение их морфологических и экологических особенностей, а также обоснование перспектив их применения в системе биологического контроля относятся к числу актуальных научных направлений.

В Республике Узбекистан особое внимание уделяется развитию сельскохозяйственной отрасли, производству экспортно-ориентированной продукции и обеспечению населения качественными продовольственными товарами. В этой связи в Стратегии «Узбекистан – 2030» определены приоритетные задачи, в том числе «...освоение дополнительно 300 тысяч гектаров земель с применением современных водосберегающих технологий и размещение на этих территориях кормовых, лекарственных, масличных, зернобобовых, рисовых, зерновых, овощных и бахчевых культур, а также создание интенсивных садов и виноградников²». Исходя из поставленных задач, комплексное изучение видового состава энтомопатогенных нематод агробиоценоза картофеля на основе современных морфологических, экологических и системных подходов имеет важное научно-практическое значение для разработки научно обоснованных стратегий биологического контроля. Обеспечение экологически безопасной защиты

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 16 февраля 2026 года № ПФ-21 «О Стратегии “Узбекистан – 2030”».

сельскохозяйственных культур, снижение пестицидной нагрузки и расширение применения биологических средств защиты в республике обладают существенной научной и практической значимостью.

Настоящее исследование в определённой степени направлено на реализацию задач, предусмотренных Законом Республики Узбекистан от 9 ноября 2023 года № 877 «О защите растений», постановлениями Президента Республики Узбекистан от 11 мая 2020 года № ПП-4709 «О дополнительных мерах по специализации территорий республики на производстве сельскохозяйственной продукции», от 13 октября 2020 года № ПП-4861 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности государственной службы по карантину растений», Указом от 23 октября 2019 года № ПФ-5853 «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020–2030 годы», а также другими нормативно-правовыми актами, регулирующими данную сферу деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики "Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды."

Степень изученности проблемы. Вопросы определения видового состава энтомопатогенных нематод, их систематического анализа, изучения морфо-экологических особенностей и хозяйственного значения получили широкое отражение в трудах зарубежных исследователей, таких как G.O.Poinar (2011), F.Agudelo-Silva (1987), R.J.Akhurst (1975), R.A.Bedding (1975), N.E.Boemare (2002), R.Gaugler (2002), R.Georgis (2006), R.W.Glaser (1932), R.U.Ehlers (2023), D.Shapiro-Illan (2021), H.K.Kaya (1997), A.M.Koppenhöfer (2006), G.Steiner (1923), S.P.Stock (1997) и других учёных.

В странах Содружества Независимых Государств данные направления нашли отражение в научных работах М.Яворска (1995), Р.Я.Мевлюдов (2000), Л.Г.Данилов (2020), Н.И.Микульская (1998), Т.С.Иванова (2000) и других исследователей.

В формировании и развитии нематологического направления в Узбекистане значительную роль сыграли академики и ведущие специалисты А.Т.Тулаганов (1960, 1975, 1978), Д.А.Азимов (1970, 1975, 1986), О.Мавлонов (1988), Ш.Х.Хуррамов (1992), Ф.Д.Акрамова (2021), А.Е.Кучбоев (2017), Х.С.Эшова (2010), А.Ш.Хуррамов (2019), К.Эшназаров (2016), А.Бекмуродов (2019), У.Н.Мирзаев (2023), Ш.О.Саидова (2019) и другие учёные, чьи научные исследования стали важной научной основой в данной области. В частности, исследования по отдельным энтомопаразитическим нематодам семейства Mermitidae проводились сотрудниками Института зоологии Академии наук Республики Узбекистан И.А.Лисикова (1987), Р.Мавлянова (1988) и Лебедова (1989).

Однако до настоящего времени в условиях агробиоценозов картофеля не проводилось комплексных исследований, направленных на изучение видового состава, распространения, морфо-биологических и экологических

особенностей, а также хозяйственного значения энтомопатогенных нематод семейств Steinernematidae и Heterorhabditidae, относящихся к родам *Steinernema* и *Heterorhabditis*.

Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ учреждения, где выполнена работа. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с планом научно-исследовательских работ Научно-исследовательского института карантина и защиты растений в рамках прикладного проекта AL-702205638 «Создание биопрепаратов на основе энтомопатогенных нематод и антагонистических микроорганизмов против вредных организмов картофеля при органическом возделывании» (2023-2025 гг.).

